



FARG'ONA VILOYATI FURQAT TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2022 - yil 26 - yanvar

4-11-164-F/22

Furqat tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28 va 126-moddalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 8 yanvardagi PQ-4102-son **qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida,**

1. Tuman mahalliy budjetining 2022 yil boshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tuman ichki xo‘jalik yo‘llarini shag‘allashda hamda obodonlashtirish ishlarini tashkil etishda sarflanadigan yoqilg‘i-moylash materiallari sotib olish xarajatlari uchun **32 000 000 (O‘ttiz ikki million) so‘m** mablag‘ ajratilsin.

2. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (R.Yusupov)ga:

ajratilgan mablag‘lardan samarali foydalanish va maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda ramiylashtirilgan hujjatlarni tegishli moliya va g‘aznachilik bo‘limlariga taqdim etilishini nazoratga olish vazifalari yuklatilsin.

3. Tuman hokimligining Moliya bo‘limi (S.Axmedov)ga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Abdupattaev)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida moliyalashtirish vazifalari topshirilsin.

4. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman

hokimining birinchi o‘rinbosari M.Oripov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



Ж.Жуманов